


OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI

«KELISHILGAN»

O'zbekiston Respublikasi
Sog'liqni saqlash vazirining
birinchi o'rinbosari A.Sh. Boboev



« »

2025 yil

«TASDIQLAYMAN»

Toshkent davlat tibbiyot
universiteti rektori
Sh.A. Boymuradov



« »

2025 yil

SOG'LIQNI SAQLASH SOHASIDA
KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH

MAXSUS O'QUV KURSI DASTURI

(Davolash ishi, Kasbiy ta'lim (Davolash ishi), Pediatriya ishi ta'lim yo'nalishlari
bitiruvchi kurs talabalari uchun)

Tuzuvchilar:

Sh.J. Xaydarov	TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedra mudiri o‘rinbosari, yuridik fanlari doktori, professor
S.M. Yusupova	ToshDavTU, Yuridik bo‘lim boshlig‘i
Sh.V. Islamqulova	ToshDavTU, Yuridik bo‘lim bosh yuris-konsulti, PhD

Taqrizchilar:

S.S. Mamanov	O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi korrupsiyaga qarshi kurashish, ichki nazorat bo‘lim boshlig‘i, PhD
O‘.S. Ismoilov	O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi fan-ta‘lim va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig‘i
N.X. Abduraxmonova	ToshDavTU Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD

Maxsus o‘quv kursi dasturi Toshkent davlat tibbiyot universitetida ishlab chiqilgan.

Maxsus o‘quv kursi dasturi Toshkent davlat tibbiyot universitetining “9” avgust 2025-yildagi 167 – sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

KIRISH

So‘nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishning huquqiy va institutsional asoslari takomillashtirilib, jamiyatda korrupsiya illatiga nisbatan murosasiz muhitni shakllantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi.

Jumladan, davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy mexanizmlari keng joriy etilib, ularning faoliyatida ochiqlikni ta‘minlash va jamoatchilik oldida hisobdorlikni oshirish bo‘yicha tizimli choralar ko‘rildi.

Shu bilan birga, aholi va davlat xizmatchilarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, ularga “halollik vaktsinasi”ni singdirish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish tizimini zamon talablaridan kelib chiqqan holda yangi bosqichga olib chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur maxsus o‘quv kursining o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-228-sonli hamda 2025-yil 21-apreldagi “Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari mustaqilligini ta‘minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-147-sonli qarorlariga muvofiq yoshlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirib borish, korrupsiyaga qarshi huquqiy madaniyatini yuksaltirish, korrupsiyaga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, ularning ongiga halollik qadriyatlarini singdirish maqsadida ishlab chiqildi.

Shu kabi, mazkur o‘quv dastur BMT Giyohvandlik va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasining Korrupsiyaga qarshi ta‘lim va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish global resursi (GRACE) dasturi bilan yoshlarni keng tanishtirish orqali korrupsiyaga qarshi kurashish tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.

“Sog‘liqni saqlash sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish” maxsus o‘quv kursi o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va Toshkent davlat tibbiyot universiteti tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, universitetning Davolash ishi, Kasbiy ta‘lim (Davolash ishi), Pediatriya ishi ta‘lim yo‘nalishlarining 6-bosqich talabalarini o‘qitish uchun mo‘ljallangan.

Maxsus o‘quv kursi o‘quv dasturidan universitetning Davolash ishi, Kasbiy

ta'lim (Davolash ishi), Pediatriya ishi ta'lim yo'nalishlarining 6-bosqich talabarlari tomonidan mavzularni mustaqil o'zlashtirishga qaratilgan.

Bundan tashqari, ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari "Korrupsiyaning mohiyati, oqibatlar va unga qarshi kurash mexanizmlari" mavzusi bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yoshlar uchun mo'ljallangan tadbirlarni tashkil etishda foydalanilish tavsiya etiladi.

O'quv kursining maqsad va vazifalari

O'quv kursining maqsadi va vazifalari mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, yoshlarning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, inson va uning sha'nini faqat qonunga rioya etgan holda huquqiy himoyasini ta'minlash, universitet talabalarini o'qitish orqali manfaatlar to'qnashuvini bartaraf qilish va korrupsiyaga qarshi kurashishning boshqa yo'nalishlari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashga qaratilgan.

Kurs yakunida talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:

o'quv kursini o'zlashtirish orqali talabalar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Talaba:

- korrupsiyaga qarshi kurash borasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari hamda "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun talablarini;

- korrupsiya tushunchasi, mohiyati, uning kelib chiqish sabablari, korrupsiyaga qarshi kurashishning xalqaro huquqiy asoslari, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlik asoslarini;

- korrupsiyaviy huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishni;

- kasb odobnomasi talablari va unga og'ishmay rioya qilishni;

- davlat xizmatchilarining kasb etikasiga oid asosiy tushunchalar - deontologiya, manfaatlar to'qnashuvi, davlat xizmatchilarining burch va majburiyatlari, davlat xizmatchilariga nisbatan o'rnatilgan ta'qiq va cheklovlar, kasbiy faoliyatidagi asosiy prinsiplarni;

- davlat xizmatida manfaatlar to'qnashuvining ko'rinishi bo'lmish - qarindoshlik, quda-andachilik, urug'-aymoqchilik, oshna-og'aynigarchilik (nepotizm), hamshaharlik yoki shaxsiy sadoqat belgilari bo'yicha tanlash va joy-

joyiga qo'yish (favoritizm), tanish bilishchilik, guruhbozlik (kronizm), mahalliychilik (traybalizm), raxnamochilik (proteksionizm), shaxsiy manfaatdorlik asosida himoyalash (patronaj), idoraviy manfaatdorlik (lobbizm), normasmiy xayrihohlik munosabatlari (kliyentelizm), nazorat ostidagi tashkilotlarga ishga o'tish yoki ommaviy sektordan xususiy sektorga o'tish (pantuflyaj) kabi salbiy holatlarni oldini olishni;

- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murossasiz munosabatni shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora- tadbirlarni amalga oshirish ko'nikmalarini;

- davlat xizmatchisiga nomunosib harakatlar, davlat xizmatchisi nomiga dog' tushiruvchi nojo'ya xatti-harakatlar, intizomga xilof nojo'ya harakat, umumiy intizomiy javobgarlik va maxsus intizomiy javobgarlik, xizmat yoki ijro intizomi buzilishi, intizomiy jazo choralari to'g'risidagi ma'lumotlarni bilishi kerak.

Talaba:

- kasbiy faoliyatni halol va vijdonan bajarish;
- xizmat burchiga sodiq bo'lish;
- xizmat vazifalarini mas'uliyat, tashabbuskorlik va xolislik bilan bajarish;
- har qanday qonun buzilishlariga, ayniqsa, korrupsiya holatlariga murossasizlik hissiyotini shakllantirish;

- davlat organlarida qonun hujjatlarida belgilangan xizmat bilan bog'liq taqiq va cheklashlarga amal qilish;

- umume'tirof etilgan kasbiy odob-axloq normalariga rioya qilish malaka va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

Talaba:

- universitetda korrupsiyaviy jinoyatlar sodir etilishini oldini olish, xavf-xatarlarni aniqlash, ularni bartaraf etish, tegishli choralar qo'llanishini ta'minlab bilish;

- davlat xizmatida nomunosib harakatlar sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik usul va vositalardan foydalana bilish;

- universitet rahbar va pedagog kadrlar hamda xodimlari tomonidan kasbiy odob-axloq qoidalariga rioya etish tizimini takomillashtirib borish;

- xodimlarda kasbiy burch va majburiyatlarini shakllantira bilish;

- universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida davlat idoralari hamda fuqarolik jamiyati institutlari, fuqarolar bilan samarali muloqot o'rnatish;

- xizmat o'tash davrida manfaatlar to'qnashuvini va korrupsiyaning turli ko'rinishlarini bartaraf qilish usul va vositalarini qo'llay bilish;

- oliy ta'lim muassasalari xodimlarida yuksak axloqiy madaniyat hamda mas'uliyat hissini shakllantira olish;

- jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantira ola bilish kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim.

Maxsus o'quv kursining soatlar taqsimoti

T/r	Mavzular	O'quv yuklamasi taqsimoti		
		Jami	Nazariy	Mustaqil ta'lim
1.	Korrupsiya tushunchasining mohiyati, tarixiy ildizlari va jamiyatda namoyon bo'lishiga oid qarashlar tasnifi	4	2	2
2.	Siyosiy, g'oyaviy va iqtisodiy korrupsiya - xavfsizlikka tahdid, xalqaro korrupsiya iqtisodiy-siyosiy manfaatlar to'qnashuvi oqibati sifatida	2	2	
3.	Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid milliy qonunchilik tahlili va davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, Sog'liqni saqlash sohasida korrupsiyani oldini olishga doir amalga oshirilayotgan ishlar	2	2	
4.	Tibbiyot sohasida korrupsiyaviy jinoyatlarning yuzaga kelish omillari va javobgarlik masalalari, kadrlar korrupsiyasi va uni bartaraf etish mexanizmlari, korrupsion jinoyatlarning oldini olish shakllari va asosiy yo'nalishlari	4	2	2
5.	Tibbiyot sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlar, ularni aniqlash va baholash usullari va oldini olish mexanizmlari, Korrupsiyaning turlari: favoritizm, nepotizm, kronizm va mahalliychilikni bartaraf etishda jamoatchilik nazorati, shaxsiy mas'uliyatning o'рни va korrupsiyaning bartaraf etishda xalqaro hamkorlik	4	2	2
6.	O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishda OAVning o'рни va axloqiy ahamiyati.	2	2	
Jami		18	12	6

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Korrupsiya tushunchasining mohiyati, tarixiy ildizlari va jamiyatda namoyon bo'lishiga oid qarashlar tasnifi

Sog'liqni saqlash sohasida korrupsiyani oldini olishga doir amalga oshirilayotgan ishlar: hisobot va baholash natijalari Korrupsiya tushunchasi: umumiy ta'rif, xalqaro tashkilotlarning ta'riflari (masalan, Birlashgan Millatlar tashkiloti, Jahon banki, Transparency InternationalJ, milliy qonunchilik, korrupsiya turlari (poraxo'rlik, lavozimni suiiste'mol qilish, o'zlashtirish, moliyaviy firibgarlik, davlat xaridlaridagi korrupsiya va boshqalar.).

Korrupsiya turlari: xususiy va davlat sektoridagi korrupsiya, davlat xizmatlaridagi korrupsiya.

Korrupsiya sabablari: iqtisodiy sabablar, ijtimoiy sabablar, siyosiy sabablar, madaniy sabablar (korrupsiyaga hissa qo'shadigan an'analar va urf-odatlar).

Korrupsiyaning oqibatlari: iqtisodiy oqibatlar, ijtimoiy oqibatlar, siyosiy oqibatlar, ekologik oqibatlar, korrupsiya va rivojlanish. Korrupsiyani o'lchash.

Tavsiya etilgan materiallar:

1. BMTning korrupsiyaga qarshi konvensiyasi.

https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/corruption.shtml

2. O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonuni (03.01.2017-y. O'RQ-419-son).

3. Olimlar va mutaxassislar uchun bilimlarni boshqarish vositalari. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha modullar seriyasi. 1-modul. Korrupsiya nima va nega u bizni bezovta qilishi kerak? BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi.

[https://grace.unodc.org/grace/uploads/documents/academics/Anti Corruption Module 1 What Is Corruption and Why Should We Care RU.pdf](https://grace.unodc.org/grace/uploads/documents/academics/Anti%20Corruption%20Module%201%20What%20Is%20Corruption%20and%20Why%20Should%20We%20Care%20RU.pdf)

4. Darslik. Korrupsiyaga qarshi kurashish. Huquqni muhofaza qilish akademiyasi. 2024 ([https://proacademy.uz/uz-cyr#main section](https://proacademy.uz/uz-cyr#main%20section)).

5. Korrupsiya alifbosi. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi. <https://anticorruption.uz/uz>

Mustaqil ravishda o'rganish uchun materiallar:

1. Korrupsiyaga qarshi ma'rifat va yoshlarning korrupsiyaga qarshi faolligini oshirish masalalari bo'yicha GRACE global resursi

<https://grace.unodc.org/grace/ru/academia/module-series-on-anti-corruption.html>

2. Yevropa Kengashining “Korrupsiyaning oldini olishga kirish” onlayn kursi

<https://help.elearning.ext.coe.int/course/view.php?id=5574>

3. U4 Korrupsiyaga qarshi kurashish resurs markazining “Korrupsiya asoslari” bazaviy onlayn kursi

<https://www.u4.no/courses/essentials-of-anti-corruption-i-the-basics>

2-mavzu: Siyosiy, g‘oyaviy va iqtisodiy korrupsiya - xavfsizlikka tahdid, xalqaro korrupsiya iqtisodiy-siyosiy manfaatlar to‘qnashuvi oqibati sifatida.

Korrupsiyaning ta’rifi va turlari.

Siyosiy, g‘oyaviy va iqtisodiy korrupsiyaning aniq ko‘rinishlari.

Siyosiy korrupsiya: davlat boshqaruvi va legitimlikka tahdid.

G‘oyaviy korrupsiya: ideologiya va mo‘tadillikka ta’siri.

Iqtisodiy korrupsiya: iqtisodiy rivojlanishga to’sqinlik va investitsiyalarga ta’siri (BRM 16).

Korrupsiyaning ijtimoiy oqibatlari: fuqarolarning siyosiy va ijtimoiy ishonchining kamayishi. Ijtimoiy adolatsizlik va noqulayliklar.

Korrupsiyani kamaytirish choralarini:

siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy mexanizmlarning rivojlanishi;

manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash, turli sohalarda manfaatlar to‘qnashuvining kelib chiqish sabablari, manfaatlar to‘qnashuvining turlari, bevosita va bilvosita manfaatlar to‘qnashuvi, manfaatlar to‘qnashuvining oqibatlari, manfaatlar to‘qnashuvining real holatlari va ularning oqibatlariga misollar.

Shuningdek, manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq xalqaro va milliy standartlarni ko‘rib chiqish. Manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va hal qilish strategiyalari, nizolarni aniqlash va tahlil qilish usullari, manfaatlar to‘qnashuvini boshqarishda shaffoflik va hisobdorlikning roli.

Tavsiya etilgan materiallar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2023-yil.

2. BMTning korrupsiyaga qarshi konvensiyasi.

https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/corruption.shtml.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni (03.01.2017-y. O‘RQ-419-son). O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/ru/docs/3088008>.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni (05.06.2024-y. O‘RQ-931-son). O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/6952742>.

5. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/ru/docs/111453>.

6. Olimlar va mutaxassislar uchun bilimlarni boshqarish vositalari. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha modullar seriyasi 3-modul. Korrupsiya va qiyosiy siyosat. BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi.

<https://grace.unodc.org/grace/uploads/documents/academics/Anti-Corruption Module 3 Corruption and Comparative Politics RU.pdf>

7. Darslik. Korrupsiyaga qarshi kurashish. Huquqni muhofaza qilish akademiyasi. 2024 f(<https://proacademy.uz/uz-cyr#main section>).

8. Korrupsiya alifbosi. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi. <https://anticorruption.uz/uz>

Mustaqil ravishda o'rganish uchun materiallar:

1. Korrupsiyaga qarshi ma'rifat va yoshlarning korrupsiyaga qarshi faolligini oshirish masalalari bo'yicha GRACE global resursi. <https://grace.unodc.org/grace/ru/academia/module-series-on-anti-sorruption.html>

2. Yevropa Kengashining “Korrupsiyaning oldini olishga kirish” onlayn kursi. <https://help.elearning.ext.coe.int/course/view.php?id=5574>

3. U4 Korrupsiyaga qarshi kurashish resurs markazining “Korrupsiya asoslari” bazaviy onlayn kursi. <https://www.u4.no/courses/essentials-of-anti-corruption-i-the-basics>

3-mavzu: Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid milliy qonunchilik tahlili va davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, Sog'liqni saqlash sohasida korrupsiyani oldini olishga doir amalga oshirilayotgan ishlar.

Milliy qonunchilik tahlili va Davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari: O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonuni, shuningdek, tegishli Prezident farmonlari va hukumat qarorlari. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturlari va ularning ijrosi. Maxsus organlarning (Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Bosh prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati va boshqalar) vakolatlari hamda ularning hamkorligi. Sog'liqni saqlash tizimidagi korrupsiya xavfini baholash va uni kamaytirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar. Davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflikni kuchaytirish, elektron hukumat tizimini rivojlantirish. Jamoatchilik nazorati va fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashda ishtirokini kengaytirish. Ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy sohalarda korrupsiyaga qarshi profilaktik choralarni amalga oshirish.

Sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan ishlar: Davlat xaridlarini elektron platformalar orqali o'tkazish va ochiq monitoring mexanizmlarini joriy etish. Tibbiy xizmat ko'rsatishda korrupsiya xavflarini kamaytirishga qaratilgan ichki nazorat tizimlarini kuchaytirish. Tibbiyot muassasalari faoliyatida shaffoflikni ta'minlash, bemorlar murojaatlariga tezkor javob berish mexanizmini yo'lga qo'yish. Xodimlarning malakasini oshirish jarayonida korrupsiyaga qarshi madaniyatni rivojlantirish bo'yicha trening va seminarlar o'tkazish. Korrupsiya xavfini baholash va natijalarini ochiqlash orqali tizimdagi zaif nuqtalarni bartaraf etish.

Tavsiya etilgan materiallar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2023-yil.
2. BMTning korrupsiyaga qarshi konvensiyasi.
https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/corruption.shtml
3. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni (03.01.2017-y. O'RQ-419-son). O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/ru/docs/3088008>
4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/ru/docs/111453>.
5. Olimlar va mutaxassislar uchun bilimlarni boshqarish vositalari. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha modullar seriyasi 2-modul. Korrupsiya va samarali boshqaruv. BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi. <https://grace.unodc.org/grace/uploads/documents/academics/Anti-Corruption Module 2 Corruption and Good Governance RU.pdf>
6. Darslik. Korrupsiyaga qarshi kurashish. Huquqni muhofaza qilish akademiyasi. 2024 ([https://proacademy.uz/uz-cyr#main section](https://proacademy.uz/uz-cyr#main%20section)).

Mustaqil ravishda o'rganish uchun materiallar:

1. Korrupsiyaga qarshi ma'rifat va yoshlarning korrupsiyaga qarshi faolligini oshirish masalalari bo'yicha GRACE global resursi <https://grace.unodc.org/grace/ru/academia/module-series-on-anti-sorrption.html>
2. Yevropa Kengashining "Korrupsiyaning oldini olishga kirish" onlayn kursi <https://help.elearning.ext.coe.int/course/view.php?id=5574>
3. U4 Korrupsiyaga qarshi kurashish resurs markazining "Korrupsiya asoslari" bazaviy onlayn kursi <https://www.u4.no/courses/essentials-of-anti-corruption-i-the-basics>.

4-mavzu. Tibbiyot sohasida korrupsiyaviy jinoyatlarning yuzaga

kelish omillari va javobgarlik masalalari, Kadrlar korrupsiyasi va uni bartaraf etish mexanizmlari, korrupsion jinoyatlarning oldini olish shakllari va asosiy yo‘nalishlari

Kadrlar korrupsiyasining ta'rifi va turlari. Kadrlar korrupsiyasi nima? Kadrlar korrupsiyasining turlari. Kadrlar korrupsiyasining sabablari (iqtisodiy omillar, siyosiy va ijtimoiy omillar, boshqaruvning shaffofsizligi, madaniyat).

Kadrlar korrupsiyasining oqibatlari. Tahlil va monitoring mexanizmlari. Ommaviy ta'lim va ma'rifatni rivojlantirish;

Korrupsiya va korrupsion jinoyatlar ta'rifi. Korrupsion jinoyatlarning oldini olishning asosiy shakllari. Korrupsion jinoyatlarning oldini olish yo‘nalishlari. Shaffoflikni oshirish. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik tushunchasi (jinoiy, ma'muriy va fuqarolik-huquqiy javobgarlik tushunchasi va turlari, sudlanganlik va uning oqibatlari).

Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlikning vujudga kelish asoslari va oqibatlari (huquqiy asos, faktik asos, jazo turlari va qo'llanilishi, yoshlikning o'tib ketishi, orzular, oila, ota-ona va farzand oldidagi majburiyatlar, oilaga va bolalar ulg'ayishiga ta'siri, jamoada, mahallada, qarindosh-urug' oldidagi obro'-e'tibor). Xalqaro antikorrupsion tashabbuslar va konvensiyalarda ishtirok etish.

Tavsiya etilgan materiallar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2023-yil.
2. BMTning korrupsiyaga qarshi konvensiyasi.
https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/corruption.shtml
3. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni (03.01.2017-y. O'RQ-419-son). O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/ru/docs/3088008>
4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/ru/docs/111453>.
5. Olimlar va mutaxassislar uchun bilimlarni boshqarish vositalari. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha modullar seriyasi 2-modul. Korrupsiya va samarali boshqaruv. BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi. <https://grace.unodc.org/grace/uploads/documents/academics/Anti-Corruption Module 2 Corruption and Good Governance RU.pdf>
6. Darslik. Korrupsiyaga qarshi kurashish. Huquqni muhofaza qilish akademiyasi. 2024 (<https://proacademy.uz/uz-cyr#main section>).

Mustaqil ravishda o'rganish uchun materiallar:

1. Korrupsiyaga qarshi ma’rifat va yoshlarning korrupsiyaga qarshi faolligini oshirish masalalari bo‘yicha GRACE global resursi <https://grace.unodc.org/grace/ru/academia/module-series-on-anti-sorruption.html>

2. Yevropa Kengashining “Korrupsiyaning oldini olishga kirish” onlayn kursi <https://help.elearning.ext.coe.int/course/view.php?id=5574>

3. U4 Korrupsiyaga qarshi kurashish resurs markazining “Korrupsiya asoslari” bazaviy onlayn kursi <https://www.u4.no/courses/essentials-of-anti-corruption-i-the-basics>

5-mavzu. Tibbiyot sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlar, ularni aniqlash va baholash usullari va oldini olish mexanizmlari, Korrupsiyaning turlari: favoritizm, nepotizm, kronizm va mahalliychilikni bartaraf etishda jamoatchilik nazorati, shaxsiy mas'uliyatning o'rni va korrupsiyaning bartaraf etishda xalqaro hamkorlik.

Korrupsiyaning ta’rifi. Korrupsiyaning ijtimoiy hayotdagi o‘rni.

O‘zbekistondagi korrupsiya turlari: favoritizm, nepotizm, kronizm, mahalliychilik.

Jamoatchilik nazorati: jamoatchilikning korrupsiyani nazorat qilish mexanizmlari. Tashkilotlar va fuqarolarning roli.

Shaxsiy mas’uliyat: shaxsiy mas'uliyat va jamiyatdagi adolat. Korrupsiyani bartaraf etish mexanizmlari, jamoatchilik nazoratini mustahkamlash;

Xalqaro hamkorlik doirasida korrupsiyani kamaytirishga qaratilgan tadbirlar va mexanizmlarini ko'rib chiqish. Boshqa davlatlar bilan O'zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amaliyotlarini va muvaffaqiyatli loyihalarini tadqiq qilish. Talabalar orasida xalqaro hamkorlikning samaradorligi va korrupsiyaga qarshi kurashdagi ijobiy tajribalar bo'yicha fikr almashish. Takliflar ishlab chiqish: Xalqaro hamkorlikni yaxshilash va korrupsiyaga qarshi kurashni samarali tashkil etish uchun aniq takliflar va strategiyalar ishlab chiqish.

Tavsiya etiladigan maieriallar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2023-yil.

2. BMTning korrupsiyaga qarshi konvensiyasi.

https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/corruption.shtml

3. Istanbul Harakatlar rejasi. OYECD axborot bazasi. <https://www.oecd.org/ru/publications/c91fac8b-ru.html>.

4. O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonuni (03.01.2017-y. O'RQ-419-son). O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/ru/docs/3088008>

5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. O'zbekiston Respublikasi

Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/ru/docs/111453>.

6. Olimlar va mutaxassislar uchun bilimlarni boshqarish vositalari. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha modullar seriyasi II-modul. Korrupsiya, tinchlik va xavfsizlik. BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi.

[https://grace.unodc.org/grace/uploads/documents/academics/Anti-Corruption Module 11 Corruption Peace and Security.PDF](https://grace.unodc.org/grace/uploads/documents/academics/Anti-Corruption%20Module%2011%20Corruption%20Peace%20and%20Security.PDF)

7. Darslik. Korrupsiyaga qarshi kurashish. Huquqni muhofaza qilish akademiyasi. 2024 fh[https://proacademy.uz/uz-cyr#main section](https://proacademy.uz/uz-cyr#main%20section)).

8. Korrupsiya alifbosi. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi. <https://anticorruption.uz/uz>

9. O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi" to'g'risida Qonuni (05.06.2024-yil O'RQ-931-son). Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazast 05.06.2024-y., 03/24/931/0402- son]. <https://lex.uz/ru/docs/6952745>

10. "O'zbekiston korrupsiyaga qarshi kurash daydjest" axborot-tahliliy jurnali. Korrupsiyaga qarshi kurash Agentligi. Korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi xalqaro hamkorlikning asosiy yo'nalishlari va kelajak rejalari. Tom 2 Ns 1 (2022).

<https://uacd.uz/index.php/iournal/article/view/59>

11. OECD (2024), Korrupsiyaga qarshi kurash va halollik prognozi 2024, OECD nashriyoti, Parij, <https://doi.org/10.1787/968587cd-en>

12. Birlashgan Millatlar TashKiloti Korrupsiyaga qarshi Konvensiya: Namunaviy Akademik Kurs [https://www.unodc.org/documents/corruption /Education/ACAD/UNCACMode 1Course/UNCAC Academic Course English.pdf](https://www.unodc.org/documents/corruption/Education/ACAD/UNCACMode%201Course/UNCAC%20Academic%20Course%20English.pdf)

[https://grace.unodc.org/grace/uploads/documents/academics/Inte grity and Ethics Module 3 Ethics and Society.pdf](https://grace.unodc.org/grace/uploads/documents/academics/Inte%20grity%20and%20Ethics%20Module%203%20Ethics%20and%20Society.pdf)

Mustaqil ravishda o'rganish uchun materiallar:

1. Korrupsiyaga qarshi ma'rifat va yoshlarning korrupsiyaga qarshi faolligini oshirish masalalari bo'yicha GRACE global resursi [https://grace.unodc.org/grace/ru/academia/module-series-on-anti- sorruption.html](https://grace.unodc.org/grace/ru/academia/module-series-on-anti-sorruption.html)

2. Yevropa Kengashining "Korrupsiyaning oldini olishga kirish" onlayn kursi <https://help.elearning.ext.coe.int/course/view.php?id=5574>

3. U4 Korrupsiyaga qarshi kurashish resurs markazining "Korrupsiya asoslari" bazaviy onlayn kursi <https://www.u4.no/courses/essentials-of-anti-corruption-i-the-basics>

4. Xalqaro korrupsiyaga qarshi Akademiya (IACA) "Davlat sektorida manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish" onlayn kursi. <https://iaca-online-training.thinkific.com/courses/conflicts-of-interest-in-the-public-sector-rus>

6-mavzu. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashda OAVning o‘rni va axloqiy ahamiyati.

Korrupsiyaning oldini olishda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi sheriklikning xalqaro va milliy tamoyillari va standartlarining ahamiyatini anglash;

Korrupsiyaning oldini olishda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi konstruktiv hamkorlik texnologiyalarini bilish va qo‘llash;

Korrupsiyaning oldini olishda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni amalga oshirishda kasbiy etika qoidalariga rioya qilish.

Tavsiya etilgan materiallar:

1. Istanbul Harakatlar rejasi. OYECD axborot bazasi.

<https://www.oecd.org/ru/publications/c91fac8b-ru.html>

2. Darslik. Korrupsiyaga qarshi kurashish. Huquqni muhofaza qilish akademiyasi. 2024 fh[https://proacademy.uz/uz-cyr#main section](https://proacademy.uz/uz-cyr#main%20section)).

3. Korrupsiya alifbosi. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi.
<https://anticorruption.uz/uz>

4. “O‘zbekiston korrupsiyaga qarshi kurash daydjest” axborot-tahliliy jurnali. Korrupsiyaga qarshi kurash Agentligi. Korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi xalqaro hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari va kelajak rejalari. Tom 2 Ns 1 (2022).
<https://uacd.uz/index.php/journal/article/view/59>

5. OYECD (2024), Korrupsiyaga qarshi kurash va halollik prognozi 2024, OYECD nashriyoti, Parij, <https://doi.org/10.1787/968587cd-en>

6. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Korrupsiyaga qarshi Konvensiya: Namunaviy Akademik Kurs https://www.unodc.org/documents/corruption/Education/ACAD/UNCA_CModelCourse/UNCAC_Academic_Course_English.pdf

Mustaqil ravishda o‘rganish uchun materiallar:

1. Korrupsiyaga qarshi ma’rifat va yoshlarning korrupsiyaga qarshi faolligini oshirish masalalari bo‘yicha GRACE global resursi <https://grace.unodc.org/grace/ru/academia/module-series-on-anti-sorruption.html>

2. Yevropa Kengashining “Korrupsiyaning oldini olishga kirish” onlayn kursi <https://help.elearning.ext.coe.int/course/view.php?id=5574>

3. U4 Korrupsiyaga qarshi kurashish resurs markazining “Korrupsiya asoslari” bazaviy onlayn kursi <https://www.u4.no/courses/essentials-of-anti-%20corrup%20tion-i-the-basics>

Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlari hamda axborot manbalari RO‘YXATI

Asosiy adabiyotlar ro‘yxati:

A. Xalqaro standart, xorijiy va milliy qonun hujjatlari:

1. O‘zbekiston Respublikasining 07.07.2008 yildagi “Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi Konventsiyasiga (Nyu-York, 2003-yil 31-oktyabr) O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida” gi Qonuni // [Elektron manba]. URL: <https://lex.uz/docs/1369505>.

2. Convention on Combating Bribery of Foreign Public Officials in International Business Transactions and related documents. [Elektron manba]. URL: www.oecd.org/daf/anti-bribery/ConvCombatBribery_ENG.pdf.

3. The Dodd–Frank Wall Street Reform and Consumer Protection Act 2010 // As Amended Through P.L.115-61, Enacted 2010 [Elektron manba]. URL: <https://www.govinfo.gov>

4. UK Bribery Act of 2010 // [Elektron manba]. URL: <http://www.legislation.gov.uk>.

5. Adequate Procedures – Guidance to the UK Bribery Act 2010 // [Elektron manba]. URL: <https://www.transparency.org.uk>.

6. Guidance about procedures which relevant commercial organizations can put into place to prevent persons associated with them from bribing. Ministry of Justice. March 2011 [Elektron manba]. URL: <http://www.justice.gov.uk-2010.pdf>.

7. O‘zbekiston Respublikasining 03.01.2017 yildagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-sonli Qonuni // [Elektron manba]. URL: <https://lex.uz/docs/3088008>.

8. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // [Elektron manba]. URL: <https://lex.uz/docs/111453>.

9. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi // [Elektron manba]. URL: <https://www.lex.uz/acts/111460>.

10. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi // [Elektron manba]. URL: <https://lex.uz/docs/97664>.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2017 yildagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2752-sonli Qarori // [Elektron manba]. URL: <https://lex.uz/docs/3105125>.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.05.2019 yildagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-sonli Farmoni // [Elektron manba]. URL: <https://lex.uz/docs/4355387>.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.06.2020 yildagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6013-sonli Farmoni // [Elektron manba]. URL: <https://lex.uz/pdfs/4875784>.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.06.2020 yildagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4761-sonli Farmoni // [Elektron manba].URL: <https://lex.uz/pdfs/4875782/>.

B. Ilmiy adabiyotlar, dissertatsiya va monografiya:

1. Ismailov B.I. Korrupsiyaga qarshi kurash borasida xorijiy davlatlar amaliyoti va halqaro standartlar tizimi shakllanishi // O‘quv qo‘llanma. -T.: O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi Korrupsiyaga qarshi kurashish ilmiy-ta’lim markazi, YuMOM. 2019 y.

2. Исмаилов Б.И. Насриев И.И. Противодействие коррупции в частном секторе: международные стандарты и зарубежная правоприменительная практика. // Монография. -Т. Академия Генеральной прокуратуры Республики Узбекистан, СПКЮ, 2020. -290с.;

3. Ismailov B.I. Korrupsiyaga qarshi kurash borasida xorijiy davlatlar amaliyoti va halqaro standartlar tizimi shakllanishi // O‘quv qo‘llanma. -T.: O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi Korrupsiyaga qarshi kurashish ilmiy-ta’lim markazi, YuMOM. 2019.-150 b.

4. Ismailov B.I., Ismailov B.I. Xorijiy davlatlarda mansabdor shaxslar aktivlarini deklaratsiya qilish.-T.: O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuratura Akademiyasi.2019.-112 b.

5. N.Salaev, B.Xidoyatov, G.Tulaganova, S.Niyozova. Korrupsiyaga qarshi kurash. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: TDYuU nashriyoti, 2018. 5-23, - 101 b.

6. N.Salaev, G.To‘laganova. Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishning huquqiy jihatlari. Monografiya. – Toshkent: TDYuU, 2019. 110 b

7. Коленко Е. Институциональные механизмы борьбы с коррупцией в Республике Узбекистан // Материалы международно-практического семинара на тему «Проблемы борьбы с коррупцией: национальный и международный опыт». -Ташкент: Чашма Принт, ст.110-118.

8. Ismailov B.I., Mamanov S.S. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida komplaens nazorat (compliance control) tizimi. Monografiya //Mas’ul muharrir: – T.: O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi, 2020.-115 b.

9. Mamanov S.S. “Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida komplaens nazorat (compliance control) tizimining o‘rni va ahamiyati: xalqaro standartlar va xorijiy tajriba”. Magistrlilik dissertatsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi, – 2020. – 98 bet.

10. Kolenko Ye.V., Shamsutdinov B.S. Korrupsiyaviy jinoyatlar uchun javobgarlik masalalari. Monografiya // Mas’ul muharrir: – T.: O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi, 2020. – 98 bet.

11. Тимошкин А.В. «Корпоративный комплаенс-контроль как инструмент экономической безопасности»: автореф. дис. ... канд. эконом. наук : 08.00.05/ Тимошкин А.В. – Москва, 2010. – 32 с., [Elektron manba]. URL: <https://www.dissercat.com;>

12. Primakov D. Compliance practices: anti-corruption, banking compliance, sanction compliance and asset tracing– M.: Infotropic media, 2019 – P.36. [Elektron manba]. URL: <https://shop.infotropic.ru>.

13. Ivanov E. Anti-corruption compliance in BRICS countries // Antikorruptsiionnyy komplaens-kontrol v stranax BRIKS//Monografiya. -M.: Yurisprudentsiya, 2015. [Elektron manba]. URL: <http://files.sudrf.ru/774>.

Qo‘shimcha adabiyotlar ro‘yxati:

1. Исмаилов Б.И., Маманов С.С. “Формирование систем комплаенса как эффективного инструмента противодействия коррупции в частном секторе” (ilmiy maqola) // O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasining “Yuridik fan va huquqni qo‘llash amaliyotining dolzarb muammolari” nomli «yosh olimlar minbari» mavzusidagi ilmiy-amaliy konfyeryensiya materiallari – 62 bet.

2. Mamanov S.S. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida komplaens nazorat (compliance control) xizmatini joriy etish masalalari. (ilmiy maqola) // Toshkent davlat yuridik universitetning “Bakalavr va magistratura talabalarining ilmiy ishlar to‘plami”;

3. Mamanov S.S. Korrupsiyaga qarshi kurashish komplaens nazorat tizimining o‘ziga xos jihatlari, “AQSh modeli” misolida (ilmiy maqola)//O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi magistratura tinglovchilarining ilmiy maqolalar to‘plami (maxsus son).

4. Mamanov S.S. Korrupsiyaga qarshi komplaens nazorati. U nima va korrupsiyaga qay darajada barham bera oladi? // <https://kun.uz/98238601>.

5. Qo‘chqarov Z.I. Oliy ta’lim sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etishda Gruziya tajribasi (ilmiy maqola) // O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi magistratura tinglovchilarining ilmiy maqolalar to‘plami (maxsus son).

Elektron manbalar:

<https://www.un.org/en/about-un>.

<https://www.thecompliancecenter.com>.

<https://www.iso.org>.

<https://mco.mycomplianceoffice.com>

<https://www.worldbank.org>

<https://www.transparency.org/en>

<http://gopacnetwork.org/>

<http://www.oecd.org/corruption/keyoecdanti-corruptiondocuments.htm>

<https://worldjusticeproject.org/rule-of-law-index>.

<http://www.lex.uz>

<https://uzautomotors.com>

GLOSSARIY

Axloq - aslida arabcha soʻz boʻlib, xulq-atvor, yurish-turish, tarbiya degan maʼnolarni anglatadi. “Odob”, “xulq-atvor” maʼnolarida ham ishlatiladi. Hozirgi vaqtda bu tushuncha jamiyatning axloqiy hayotida yuz beradigan barcha jarayonlarning majmuini aks ettiradi. Axloq tushunchasini ikki xil maʼnoda koʻrish mumkin: axloq umumiy tushuncha sifatida etikaning tadqiqot obyektni anglatga, yakka tushuncha sifatida inson feʼl-atvori va xatti-harakatining oʻziga xos koʻrinishini anglatadi.

Kasb odobnomasi - oliy taʼlim muassasalari rahbar va pedagog kadrlari hamda ishchi xodimlarining xizmat davomida va xizmatdan tashqari vaqtda yurish-turish qoidalarini belgilaydigan asosiy talablar majmuidir.

Korrupsiya - shaxsning oʻz mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud oʻzga shaxslarning manfaatlarini koʻzlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik - korrupsiya alomatlariga ega boʻlgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish.

Manfaatlar toʻqnashuvi - shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning oʻz lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga taʼsir koʻrsatayotgan yoxud taʼsir koʻrsatishi mumkin boʻlgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari oʻrtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar toʻqnashuvi] yoki yuzaga kelishi mumkin boʻlgan (ehtimoliy manfaatlar toʻqnashuvi) vaziyat.

Etika - qadimiy yunoncha “etos” etosj soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, uy, birgalikdagi yashash makoni, insonlarning turar joyi maʼnolarini anglatadi. Keyinchalik bu soʻzning maʼnosi odob, axloq yaʼni inson muomalasi doirasi va xarakteri oʻrtasidagi aloqalarni, insoniyat sifatining muhim belgilari, fazilatlari maʼnosini bildiradi boshlagan.

Deontologiya - davlat xizmatchilarining asosiy majburiyatlari, ularga quyiladigan cheklov va taʼqiqqlar majmui togʻrisidagi taʼlimot. 1834-yilda Ingliz huquqshunosi va faylasuf lerimiya Bentam (1748-1832-y.) “Deontologiya, odob toʻgʻrisidagi taʼlimot degan asarida ilk bor davlat xizmatchilarining asosiy majburiyatlari, ularga quyiladigan cheklov va taʼqiqqlar maimui yaratadi. Keyinchalik uning taʼlimoti asosida deyarli barcha Yevropa davlatlarida sohaviy deontologiya kodekslari qabul qilinadi.

Kasb etikasi normalariga quyidagilar kiradi: insonparvarlik, xushmuomalalik, hushfelliqlik va odoblilik, oddiqlik va kamtarlik, halollik va rostgo'ylik, insofliqlik, sobitqadamlik, ochiq ko'ngillik, saxiqlik va muruvvatlilik, o'zaro hurmat, do'stona munosabat, samimiqlik, sipolik, kattalarni hurmat qilish va boshqalar.

Odob (arab. - adab so'zining ko'pligi) - jamiyatda e'tirof etilgan xulq normasi. Shaxs ma'naviy hayotining tashqi jihatini ifodalaydi va o'zgalari bilan munosabat (oila, mehnat jamoasi, turli marosimlar^{da} namoyon bo'ladi. Odob negizida axloqning ba'zi tamoyil va me'yorlari, shuningdek, maqsadga muvofiqlik va go'zallik (estetika) talablari yotadi.

Kronizm - lavozimlarni tanish-bilishchilik asosida tarqatish qarindosh-urug'chilikka nisbatan kengroq ma'noga ega bo'lib, u berilgan lavozimga mos yoki mos emasligidan qat'i nazar uni do'stlariga berish afzal ko'rilgan vaziyatlarni qamrab oladi. Bu hol ko'pincha ishga tayinlash jarayonida, shuningdek ba'zan keng vakolatlar ishga solingan har qanday vaziyatda ham vujudga kelishi mumkin.

Kliyelizm (ingl. clientelism, lot. Clientela — mijoz) - yuqori lavozimdagi mansabdor shaxs va unga xayrixox bo'lgan shaxslar (mansabdor shaxslar, tadbirkorlar, siyosiy guruhlar) o'rtasidagi normasmiy munosabatlar ko'rinishi. Rahnamo (patron) va xayrixox, mijoz (klient) o'rtasidagi munosabatlar natijasida rahnamo shaxs mijozlari ma'lum bir iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy maqsadlarga erishsa, rahnamo o'zining mavqeini kengaytiradi.

Norma - lotincha so'z bo'lib, o'zbek tilida rasmiylashtirilgan qonun-qoida, hamma uchun majburiy deb hisoblangan tartib-qoida yoki biror narsaning, ishning aniq belgilangan o'lchami, me'yori degan ma'nolarni anglatadi.

Odoblilik - yaxshi tarbiya ko'rganlikning namoyon bo'lishi, xatti harakatlarda, so'zlashuvda me'yorni, chegarani, muvofiqlik va nomuvofiqlikni bilishdir.

Odoblilikning asosiy belgisi – o'zini tuta bilish, hukm chiqarishda shoshilmaslik, o'zgalari fikrini tinglay bilish, shirinso'zlik hisoblanadi.

Xalollik har bir insoning o'z kuchi bilan mehnat qilishi, shuning evaziga topgan mol-mulki, obro'si, jamiyatda tutgan o'rni, xulqining to'g'riligi, so'zida qat'iylik va sadoqatining majmuasidir.

Rostgo'ylik - halollikning bir ko'rinishi bo'lib, haqiqatni gapirish, o'zining ham, o'zgalarning ham qadr-qimmatini to'g'ri baholash, yaxshini yaxshi, yomonni yomon deb ochiqchasiga aytishdir. Rostgo'ylik vijdon tushunchasi bilan bog'liq, insonning o'ziga munosabati o'ziga munosabatidek sof bo'lishini talab etuvchi me'yorlardir.

Illat – so‘zi kasallik, xastalik, jismoniy va ruhiy kamchilik, nuqson degan ma‘noni anglatadi. Shunga ko‘ra umuminsoniy axloqqa zid illatlar deb umuminsoniy odob-axloq prinsiplari va normalari doirasiga sig‘maydigan, unga xilof ravishda sodir etiladigan yaramas xatti-harakatlarga aytiladi. Bunday axloqsizlarga — g‘azab, jaholat, adovat, g‘iybat, haqorat, hasad, nifoq, zulm, yolg‘onchilik, maxtanchoqlik, dangasalik, ichkilikbozlik, manfaatparastlik, shuhratparastlik, ayyorlik, xushomadgo‘ylik, ikkiyuzlamachilik, ezmalik, jizzakilik kabilar kiradi.

Urug‘-aymoqchilik - feodal jamiyatlarga xos qon-qarindoshlik aloqalari bilan bog‘langan odamlarning birligidir. Bugungi dunyoda haqiqiy ma‘nodagi urug‘-aymoqqa bo‘lingan jamiyatni topish mushkul bo‘lsa kerak. Lekin ba‘zan u shakli o‘zgargan, “yangilangan” holda mavjud bo‘ladi. Ko‘pgina mamlakatlarda qondoshlik shtalari hozir unchalik kuchli emas. Biroq ular o‘rniga boshqa mushtaraklik, boshqa birlikning rishtalari, jumladan, yurtdoshlik, hududiy yaqinlik rishtalari vujudga keldi.

Qarindosh-urug‘chilik - hududiy yoki etnik prinsiplar asosida davlat tuzilmalarida yoki boshqa tuzilmalarda tor guruhchilik manfaatlari bilan ish ko‘radigan, aynan shu manfaatlarni birinchi o‘ringa qo‘yadigan uyushmalar (ko‘pincha norasmiy uyushmalar). Qarindosh-urug‘chilik umumiy ishga, umumdavlat, umumxalq manfaatlariga zarar keltirgan holda shakllanib, o‘z maqsadlariga erishish uchun a‘zolarini mavjud davlat, hokimiyat va boshqa pog‘onalarda yuqori ko‘tarishga harakat qilar ekan, bu hol xavfli bo‘lib qoladi.